**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
G.I. Muxamedov
________________
2024-yil “___” ________

# O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYASI
# O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| Ta’lim sohasi: | 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar |
| Ta’lim yo‘nalishi: | 60530200 – Geografiya |

**Chirchiq- 2024**

| Fan/Modul kodi<br>O'G23412 | O'quv yili<br>2025-2026 | | Semestr<br>3,4 | ECTS-Kreditlar<br>6-6 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/Modul turi<br>Majburiy | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | | Xaftadagi dars soatlari<br>6-6 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | O'zbekiston geografiyasi | | 180 | 180 | 360 |

**2.** **I. Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga va O'zbekiston tabiatining o'ziga xos tabiiy-geografik xususiyatlari , tabiiy sharoiti va resurslari, tabiat komplekslari, tabiat hodisalarning bir-biriga bog'liq va aloqadorlik qonuniyatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligi va aloqadorligi, tabiiy geografik rayonlari, aholisi va mehnat resurslari, xalq xo'jaligining asosiy xususiyatlari, ishlab chiqarish tarmoqlarining tarkibi va hududiy joylashi, tashqi iqtisodiy aloqalari, iqtisodiy rayonlari va ular o'rtasidagi geografik va ekologik tafovutlarni o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarga vatanimizning umymiy tabiiy-geografik xususiyatlari, tabiati va tabiiy resuralsridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, tabiiy geografik rayonlarining tekislik va tog'lik provinsiyalari bo'yicha xususiyatlarini tahlil qilish va o'rgatish bilan birga Vatanni sevish va ardoqlash, miliy qadriyatlarni e'zozlash va ularga sidqidildan xizmat qilish ruhini singdirishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu: O'zbekistonning geografik o'rni**

O'zbekiston geografiyasining geografiya fanlari tizimida tutgan o'rni, Markaziy Osiyo davlatlari geografiyasini o'rganishdagi o'rni, O'zbekiston haqida umumiy ma'lumot, uning geografik o'rni, chegaralari, qismlarga bo'linishiga.

**2-mavzu: O'zbekiston geografiyasining o'rganilish tarixi**

O'zbekiston tabiati haqida eng qadimgi tasavvurlar. O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarini arab va xitoy sayyohlari tomonidan o'rganilishi. Geografik bilimlarning o'rta asrlarda rivojlanishi. Amir Temur va Temuriylar davrida respublika tabiatiga doir geografik bilimlar. Mustamlaka davrida geografik tadqiqotlar. Mustaqillikdan keyin geografik tadqiqotlar.

**3-mavzu: O'zbekiston yer yuzasining tuzilishi**

O'zbekiston relyefining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar. Asosiy

relyef shakllari: tog'lar, tog' tizmalari, tog' oraliq botiqlari, tekisliklar, platolar, botiqlar. Relyef shakllarining o'ziga xos xususiyatlari.

**4-mavzu: O'zbekistonning geologik taraqqiyot tarixi. Zilzilalar**

Geologik rivojlanish tarixi. Poleazoy, mezazoy va kaynazoy eralarida o'lkaning rivojlanish tarixi. Asosiy burmalanish bosqichlari va ularda ko'tarilgan tog'lar. Zilzilalar, ularning hudud tektonik tuzilishi bilan bog'liqligi, asosiy seysmik mintaqalar.

**5-mavzu: O'zbekiston iqlimi**

O'zbekistonning iqlimiy xususiyatlari. Iqlim hosil qiluvchi omillari. Harorat, yog'inning va bosimning hududiy va yil fasllari bo'yicha taqsimlanishi. Yillik, yanvar, iyul izotermalarining joylashish xususiyatlari. Shamollar, mahalliy shamollar, yil fasllari.

**6-mavzu: O'zbekiston ichki suvlari**

O'zbekiston ichki suvlarining turlari. Daryolar va ularning hududi bo'yicha taqsimlanishi, to'yinishi, daryo havzalari, daryolarning gidrografik xususiyatlari. Ko'llar va ularning o'lka hududi bo'yicha taqsimlanishi, ko'llarning xususiyatlari, ko'l qozoninig kelib chiqishiga ko'ra turlari. Suv omborlari va ularning ahamiyati. Yer osti suvlari, ularning tarqalishi va turlari, xususiyatlari. Tyanshan va Oloy tog' tizmalarida tarqalgan hozirgi zamon muzliklari.

**7-mavzu: O'zbekiston tuproqlari**

O'lkada tuproq qoplamining tarqalish qonuniyatlari. Tekislik, tog' oldi va tog' qismlarida tarqalgan tuproq turlari va ularning tavsifi, tuproqlar eroziyasi, tuproqlarning sho'rlanishi, tuproq melioratsiyasi. Yer va tuproq boyliklaridan foydalanish. Tabiiy va suniy omillarning tuproqqa ta'siri.

**8-mavzu: O'zbekiston o'simlik va hayvonot dunyosi**

O'simliklar va hayvonot dunyosining iqlim, relyef va boshqa geografik komponentlarga bog'liq holda tarqalish qonuniyatlari. O'simlik va hayvonlarning mahalliy sharoitga moslashishi, o'simlik qoplamining asosiy turlari, o'simlik boyliklaridan oqilona foydalanish. O'rta Osiyoning endemik o'simlik va hayvonlari. Qo'shni hududlardan kirib kelgan hayvonlar. Tabiiy va suniy omillarning o'simlik va hayvonot dunyosiga ta'siri.

**9-mavzu: O'zbekistonning tabiati va tabiiy boyliklarini muhofaza qilish.**

O'zbekiston tabiiy boyliklari va ularning asosiy turlari. Tabiiy boyliklarning hozirgi holati, ularga tabiiy omillar va inson faoliyatining ta'siri, oqilona foydalanishning yo'nalishlari. O'zbekiston hududidagi muammolari. "Qizil kitob" va unga kiritilgan o'simlik va hayvonot dunyosi. O'zbekistonda tashkil etilgan qo'riqxonalar, milliy bog'lar va buyurtmalar haqida umumiy ma'lumot. Ularning joylashgan o'rni, bajaradigan vazifalari,

muhofaza qilinayotgan o‘simlik va hayvon turlari.

**10-mavzu: O‘zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish. Ustyurt va Quyi Amudaryo.**

O‘zbekistonni tabiiy geografikik rayonlashtirish masalalari. O‘zbekistonning tekislik provinsiyasiga kiruvchi o‘lkalar.

Ustyurt va Quyi Amudaryoning geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

**11-mavzu: Qizilqum. Quyi Zarafshon**

Qizilqum o‘lkalarining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

Quyi Zarafshon o‘lkalarining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

**12-mavzu: Farg’ona botig’i. O‘rta Zarafshon**

Farg’ona botig’i o‘lkalarining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

Farg’ona botig’i va O‘rta Zarafshon o‘lkalarining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

**13-mavzu: Qashqadaryo. Surxondaryo**

Qashqadaryo o‘lkalarining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

Surxondaryo o‘lkalarining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

**14-mavzu: G’arbiy Tyanshan. Turkiston-Nurota. Hisor-Zarafshon va Bobotog**

G’arbiy Tyanshan o‘lkasining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

Turkiston-Nurota o‘lkalarining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

Hisor-Zarafshon va Bobotog’ o‘lkalarining geografik o‘rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi.

**15-mavzu: Chirchiq-Ohangaron vodiysi. Mirzacho'l**

Chirchiq-Ohangaron vodiysi geografik o'rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosi.

Mirzacho'l o'lkasining geografik o'rni, chegaralari, geologik va geomorfologik tuzilishi, foydali qazilmalari, ularnig turlari, iqlimi, ichki suvlari, o'simlik va hayvonot dunyosi.

**16-mavzu. O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, chegaralari**

O'zbekistonning hududiy va nufuziy ko'rsatkichlari. Respublika joylashgan iqtisodiy geografik o'rnining xususiyatlari. Siyosiy-ma'muriy bo'linishi. O'zbekiston respublikasining tashkil topish bosqichlari. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olishning o'lka xo'jaligiga ta'siri. Oktabr inqilobidan keyin milliy-hududiy chegaralanishning tashkil topishi, uning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari. O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari xamdo'stligi rivojida u joylashgan siyosiy, iqtisodiy va transport geografik o'rnining tobora yaxshilanib borishi.

**17-mavzu. O'zbekiston tabiiy sharoiti va tabiiy resurslar**

O'zbekiston tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarining xo'jalik ahamiyati. Tabiiy resurslaridan foydalanishning tarixiy rivojlanish bosqichlari. Tabiiy resurslarning respublika ishlab chiqarish kuchlarining joylanishi va rivojlanishidagi axamiyati. O'zbekistonning tabiiy resurslar bilan ta'minlanish darajasi. Tabiiy resurslar bilan ta'minlanishning hududiy tafovvutlari.

**18-mavzu. O'zbekiston aholisi va uning tarkibi. O'zbekiston mehnat resurslari va urbanizatsiya jarayoni**

Aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi ekanligi. O'zbekiston aholisining dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Aholi o'sishining asosiy omillari. Aholining tabiiy va mexanik (migratsion) xarakati. Aholining jinsiy va yosh tarkibi, ularning O'zbekiston aholisi tabiiy ko'payishida aks etishi. Aholining milliy tarkibi, uning yillar davomida o'zgarishi. Mustaqil O'zbekistonda millatlararo munosabatlar. Aholining ijtimoiy tarkibi va bilim - malaka ko'rsatkichlari. Migratsiya jarayonining ob'ektiv iqtisodiy-ijtimoiy omillari. O'zbekistonda aholi migratsiyasi, ularning bosqichlari va xususiyatlari.

Mehnat resurslari va ularning milliy iqtisodiyot tarmoqlarida taqsimlanishi. Mehnat resurslaridan foydalanishning o'ziga xos hududiy ishlab chiqarish xususiyatlari. Respublika mustaqilligi sharoitida mehnat resurslaridan foydalanish muammolari. Aholining hududiy joylashishi va undagi asosiy siljishlar. Aholi hududiy joylashishidagi geografik tafovutlar. Aholining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanishi, ularning nisbati va o'zgarib borishi bosqichlari. Urbanizatsiya jarayoni va uning

O‘zbekistonda rivojlanish xususiyatlari. Urbanizatsiyaning hududiy ko‘rsatkichlari.

**19-mavzu. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlanish xususiyatlari**

O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotida tutgan o‘rni. Respublika milliy iqtisodiyotining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. Inqilobdan oldingi O‘zbekiston xo‘jaligi. Undagi asosiy hududiy va tarkibiy ko‘rsatkichlar. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va transport tarmoqlari rivojlanishining asosiy bosqichlari va xususiyatlari. Sobiq ittifoq davrida O‘zbekiston iqtisodiyotining asosan xom ashyo va yarim xom ashyo mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi Ularning sabab va oqibatlari. Mustaqillik yillarida respublika iqtisodiyotida yuz bergan o‘zgarishlar. O‘zbekiston iqtisodiyotning Mustaqil Davlatlar Xamdo‘stligi iqtisodiyotida tutgan o‘rni.

Ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanishining erkin iqtisodiy munosabatlarga o‘tish davri muammolari. Ilg‘or xorij texnologiyasidan foydalanish istiqbollari. O‘zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish va boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari. Uni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar.

**20-mavzu. O‘zbekiston sanoati**

O‘zbekiston sanoat tarmoqlari, ularni rivojlantirish va hududiy joylashtirish sharoitlari va omillari. Respiblika sanoatining rivojlanish ko‘rsatkichlari, ularning tarkibiy va hududiy joylanish xususiyatlari.

Og‘ir sanoat tarmoqlari tarkibi, ularni rivojlantirish va hududiy joylashtirish sharoitlari va omillari. Respiblikada yengil sanoatning rivojlanish ko‘rsatkichlari, ularning tarkibi va rivojlanishi.

**21-mavzu. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi**

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi, uning respublika iqtisodiyotidagi o‘rni, rivojlanish omillari va bosqichlari. Rivojlanish darajasi va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari. Majmuaning yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish davridagi rivojlanishi xususiyatlari. Asosiy qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish mintaqalari.

Tarmoq tarkibi. Dehqonchilik tarmog‘ining hududiy xususiyatlari. Chorvachilikning rivojlanish omillari.

**22-mavzu. O‘zbekiston transporti**

Transportning mustaqil O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishidagi axamiyati, uning rivojlanish darajasi va tarkibi. Mustaqillik sharotida transport tarmoqlarining rivojlanishi muammolari va istiqbollari. Temir yo‘l transporti, uninig rivojlanishi bosqichlari va geografiyasi. Yangi temir yo‘l qurilishlari O‘zbekistonning yagona temir yo‘llari tuzimini yaratishning siyosiy va iqtisodiy ahamiyati.

Avtomobil transportining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni, rivojlanish

| | |
|---|---|
| | bosqichlari. Mamlakatlararo va ichki rayonlararo yuk tashishda tarmoq rolining ortib borishi, uning geografiyasi. Xavo transporti uning xususiyatlari. Mustaqillik sharoitida respublikaning tashqi va ichki aloqalarini rivojlantirishda uning roli va geografiyasi. Suv, quvur va elektron transportlari, ularning rivojlanish imkoniyatlari, istiqbollari va geografiyasi.<br><br>**23-mavzu. O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari**<br>Turli davlatlar iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida tashqi iqtisodiy aloqalarning ob'ektiv zarurligi, ularning mohiyati, mazmuni, tarkibi xaqida tushunchalar. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalar, xususan tashqi savdo aloqalari rivojlanishining asosiy tarixiy bosqichlari. Mustaqillik yillarida ularning yangi mazmun va keng ko'lamda rivojlanayotganligi. Bunda turli yo'nalishlar bo'yicha jahon bozorlari bilan bog'laydigan yangi transport yo'llarini tashkil etilishining ahamiyati. O'zbekiston tashqi savdosining geografiyasining tobora kengayib borayotganligi. Unda eksport va importning o'ziga xos nisbati va undagi ijobiy siljishlar. Tashqi savdo balansi (ijobiy yoki salbiy) haqida tushuncha. Tashqi savdo ko'rsatkichlaridagi tadrijiy ijobiy o'zgarishlar. Tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishidagi asosiy muammolar va istiqbollar.<br><br>**24-mavzu. O'zbekiston nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari**<br>Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanishining ob'ektiv asoslari, o'sishi sur'atlari va xozirgi holati. O'zbekiston iqtisodiyoti rivojida tutgan o'rni. Ularning tarkibi, rivojlanishi muammolari va istiqbollari. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining , shakllanishi va rivojlanish shart-sharoitlari. Uy-joy va kommunal xo'jaligi tarmog'ining jamiyat iqtisodiy-ijtimoiy xayotining tashkil etishdagi roli uning rivojlanishi darajasi. Mustaqillik sharoitida tarmoqning rivojlanish istiqbollari.<br>Savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'ining axamiyati, rivojlanish xolati, muammolari, mulkchilik shakllari xilma-xilligi davrida rivojlanish imkoniyatlari, ularning istiqbollari. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining respublikada va ijtimoiy ishlab chiqarish soxalarini rivojlantirishdagi ahamiyati. Tarmoqni hududiy tashkil etishning shart-sharoitlari,uning ichki tarkibi, rivojlanishi darajasi va muammolari. Aholiga ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish tarmog'ining aholining ma'naviy shakllanishi va kamol topishidagi ahamiyati, uning asosiy ichki tarmoqlari, rivojlanish darajasi, muammolari va istiqbolari.<br><br>**25-mavzu. O'zbekiston respublikasini iqtisodiy rayonlashtirish. Toshkent iqtisodiy rayoni**<br>Respublikada iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy asoslari va amaliy axamiyati. Iqtisodiy rayonlashtirishning xususiyatlari va omillari, undagi asosiy iqtisodiy rayonlar. Rayonlarning kattaligi, respublika iqtisodiyotida |

tutgan o‘rni.

Toshkent iqtisodiy rayoni xususiyatlari. Tabiiy sharoiti va resurslari. Ularning iqtisodiy ahamiyati. Aholisi va mehnat resurslari. Ularning hududiy joylashuvi. Iqtisodiyoti. Rivojlanish bosqichlari va omillari. Sanoatining rivojlanish holati va tarkibi. Yoqilg‘i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallari majmualari, yengil, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarning tashkil etilishi xususiyatlari, geografiyasi, rivojlanish ko‘lami va istiqbollari. Mustaqillik yillarida iqtisodiy rayon sanoatining rivojlanishi.Qishloq xo‘jaligi. Uning iqtisodiy rayon iqtisodiyotida tutgan o‘rni, rivojlanishi darajasi va imkoniyatlari. Yer resurslari, ulardan foydalanish xolati va xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish tarmoqlari, istiqbollari va geografiyasi. Transportining asosiy tarmoqlari va geografiyasi. Rayonning asosiy sanoat va ma’naviy markazlari, ularning hududiy joylanishi xususiyatlari. Shaharlari. O‘zbekiston ijtimoiy xayotida Toshkent shahri va uning o‘rni.

**26-mavzu. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni**

Rayonning hududiy - ma’muriy tarkibi, kattaligi, respublika iqtisodiyotida tutgan o‘rni, ishlab chiqarish ixtisosining o‘ziga xos tomonlari. Rayon geografik o‘rnining xususiyatlari, tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyoti, uning shakllanishi va ixtisoslanish xususiyatlari. Xo‘jaligini tashkil etishda Mirzacho‘l dashtini o‘zlashtirishning axamiyati va ko‘lami. Sanoatining rivojlanishi xususiyatlari, tarkibi. Qishloq xo‘jaligini tashkil etishning muxim bosqichlari, xususiyatlari va imkoniyatlari. Uning asosiy ishlab chiqarish tarmoqlari, ularning hududiy joylashtirilishi va ixtisoslashishi. Asosiy transport tarmoqlari. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarini iqtisodiyoti tarmoqlarining o‘zaro o‘xshashliklarda va tafovvutlari. Asosiiy sanoat markazlari.

**27-mavzu. Farg‘ona iqtisodiy rayoni**

Iqtisodiy rayonning ma’muriy-hududiy tarkibi, kattaligi, geografik o‘rnining asosiy jixatlari. Uning respublika iqtisodiyotida tutgan o‘rni, ishlab chiqarish ixtisosining xususiyatlari. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari, rayondagi aholi bandligi muammolari. Iqtisodiyoti, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari, darajasi, tarkibi. Asosiy sanoat tarmoqlari geografiyasi. Yoqilg‘i-energetika, mashinasozlik, kimyo, qurilish materiallar sanoat majmualari. Yengil va oziq-ovqati, aholi iste’mol mollari ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish imkoniyatlari. Zamonaviy sanoat korxonalari, xususan qo‘shma korxonalar geografiyasi. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishning muxim xususiyatlari. Yer-suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlari. Uning asosiy tarmoqlari, muammolari va istiqbollari. Vodiyda qadimiy xalq xunarmandchiligi va turizmni rivojlantirishning keng imkoniyatlari. Transporti, uning rivojlanishi xususiyatlari, muammolari va bartaraf etishi

| | |
|---|---|
| | imkoniyatlari. Asosiy transport tarmoqlari va yirik yo'llar qurilishlari georafiyasi. Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlarining asosiy iqtisodiy va ijtimoiy geografik tafavutlari. Asosiy industal markazlari va shaharlari.<br><br>**28-mavzu. Zarafshon iqtisodiy rayoni**<br>Rayonning ma'muriy tuzilishi, kattligi, chegaralari, iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi, xo'jaligining respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyoti, uning tarixiy rivoj topganligi xususiyatlari. Sanoatining asosiy tarmoqlari: mashinasozlik, kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoatlari. Mahaliy sanoat (xunarmandchilik) tarmoqlarining yaxshi rivojlanganligi. Mustaqilik yillarida tashkil qilingan yangi zamonaviy korxonalar geografiyasi, qishloq xo'jaligining o'ziga xos jihatlari va tarmoqlari tarkibi. Uning don, meva va uzum, tamaki, kartoshka va boshqa xildagi maxsulotlar yetishtirishda respublikadagi yetakchilik o'rni, cho'l mintaqasida yaylov chorvachiligi (Qorako'lchilik, tuyachilik). Samarqandning O'zbekistonning eng yirik turizm markazi ekanligi, xalq turizmini rivojlantirish imkoniyatlari va istiqbolining kattaligi. Transporti va uning tarkibi. Temir yo'l va avtomobil transportlarining yetakchi xo'jalik roli. Asosiy sanoat markazlari va shaharlari.<br><br>**29-mavzu. Janubiy iqtisodiy rayoni**<br>Iqtisodiy rayonning hududiy tarkibi, kattaligi, chegaralari, iqtisodiy geografik o'rni xususiyatlari. Iqtisodiy rayonning respublika iqtisodiyotida tutgan o'rnining tobora oshib borishi. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, unda tabiiy gaz va neftning katta zahiralariga egaligi. Aholisi va mehnat resurslari. Xo'jaligining ko'p tarmoqliligi. Uning gaz va neft, paxta va don mahsulotlari yetishtirishdagi yetakchiligi. Sanoatining tog'-kon (gaz va neft qazib chiqarish), gaz kimyosi, yengil va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi. Qishloq xo'jaligi, unda paxtachilik, donchilik, uzumchilik, bog'dorchilik, sabzovotchilik, polizchilik, subtropik mevalar qoramolchilik, qorako'lchilik kabi tarmoqlar salohiyatining yuqoriligi. Transporti, unda temir yo'l, avtomobil, quvur transport tarmoqlarining ahamiyati. Asosiy magistral yo'llari geografiyasi. Unda Termiz shahrining temir yo'l, avtomabil va daryo transportlari tutashgan yirik uzel sifatidagi alohida o'rni. Asosiy şanoat markazlari va shaharlari.<br><br>**30-mavzu. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni**<br>Rayonning ma'muriy-hududiy tarkibi, kattaligi, chegaralari, iqtisodiy-geografik o'rni xususiyatlari. Rayon xo'jaligining respublika mintaqalararo mehnat taqsimotidagi muhim o'rni. Tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari. Aholisi va mehnat resurslari. Iqtisodiyotining agrar-industrial xarakteri. Qishloq xo'jaligining paxta, don, poliz, chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga iqtisoslashganligi, xususan eng yirik sholi |

| | |
|---|---|
| | yetishtiruvchi rayon ekanligi. Sanoatining asosan agrar tarmoq maxsulotlarini qayta ishlash asosida shakllanganligi. Yengil va oziq-ovqat sanoatlari, gilam to‘qish, yoqilg‘i-energetika, kimyo kabi sanoat tarmoqlarining tez rivojlanayotganligi. Tarixiy-ijtimoiy rekreatsiya resurslariga ancha boyligi tufayli rayonda turizmning axamiyatlari tobora oshib borayotganligi. Rayondagi murakkab ekologik xolat va uning ijtimoiy-iqtisodiy xayotga ta’siri. Transporti. Rayonlararo va xalqaro aloqalarda temir yo‘l, avtomobil, quvur va xavo transportlarining asosiy tarmoqlaridan ekanligi. Yangi yo‘llarning ishga tushirilishi bilan bu imkoniyatlarning yanada kengayganligi. Asosiy sanoat markazlari va shaharlari.<br><br>**III. Amaliy mashg‘ulotlarni bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**<br>Amaliy mashg’ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.<br>1. O‘zbekistonning geografik o‘rni, chegaralari va maydoni.<br>2. O‘zbekistonning chegaralari va maydoni.<br>3. O‘zbekistonning geografik o‘rganilish tarixi.<br>4. O‘zbekistonning geografik o‘rganilish tarixi bosqichlari.<br>5. O‘zbekiston relyefi.<br>6. O‘zbekiston relyefining shakllanish bosqichlari.<br>7. O‘zbekiston geologiyasi.<br>8. Zilzilalar, ularning hudud tektonik tuzilishi bilan bog’liqligi, asosiy seysmik mintaqalar.<br>9. O‘zbekiston iqlimi.<br>10. Shamollar, mahalliy shamollar, yil fasllari.<br>11. O‘zbekiston ichki suvlari.<br>12. Suv omborlari va ularning ahamiyati.<br>13. O‘zbekiston tuproqlari.<br>14. Yer va tuproq boyliklaridan foydalanish.<br>15. O‘zbekiston o‘simliklari va hayvonot dunyosi.<br>16. O‘simlik va hayvonlarning mahalliy sharoitga moslashishi, o‘simlik qoplamining asosiy turlari, o‘simlik boyliklaridan oqilona foydalanish.<br>17. O‘zbekiston tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish.<br>18. O’zbekiston hududidagi muammolari. “Qizil kitob” va unga kiritilgan o‘simlik va hayvonot dunyosi.<br>19. O‘zbekistonni tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari.<br>20. Ustyurt ва Quyi Amudaryo okrugi.<br>21. Qizilqum okrugi.<br>22. Quyi Zarafshon okrugi.<br>23. Farg’ona okrugi.<br>24. O‘rta Zarafshon okrugi.<br>25. Qashqadaryo okrugi.<br>26. Surxondaryo okrugi.<br>27. G’arbiy Tyanshan ва Turkiston-Nurota okrugi. |

28. Hisor-Zarafshon va Bobotog G'arbiy Tyanshan okrugi.
29. Chirchiq-Ohangaron okrugi.
30. Mirzacho'l okrugi.
31. O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi, chegaralari
32. O'zbekistonning siyosiy-ma'muriy kartasining shakllanish bosqichlari.
33. O'zbekiston Respublikasining tabiiy resurslari bilan ta'minlanishini tahlil qilish.
34. Tabiiy resurslarning respublika ishlab chiqarish kuchlarining joylanishi va rivojlanishidagi axamiyati.
35. O'zbekiston aholisi o'sish dinamikasini aniqlash.
36. Aholining yillar bo'yicha tabiiy xarakatini tahlil qilish.
37. O'zbekiston iqtisodiyotining shakllanish bosqichlarini o'rganish.
38. Aholining shahar va qishloq o'rtasida taqsimlanishi, ularning nisbati va o'zgarib borishi bosqichlari.
39. Respublika sanoat korxonalari va tarmoqlarining geografiyasi.
40. Og'ir va yengil sanoat tarmoqlari tarkibi.
41. Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohatlarni tahlil qilish.
42. Dehqonchilik va chorvachilikni hududiy tashkil etilishi.
43. O'zbekistonda mavjud transport vositalarini tahlil qilish va yozuvsiz kartaga transport yo'llarini chizish.
44. Mustaqillik sharoitida respublikaning tashqi va ichki aloqalarini rivojlantirishda uning roli.
45. Tashqi iqtisodiy aloqalarga doir jadvallar chizish.
46. Tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishidagi asosiy muammolar va istiqbollar.
47. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, ularni guruxlashtirish.
48. Aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'ining respublikada va ijtimoiy ishlab chiqarish soxalarini rivojlantirishdagi ahamiyati.
49. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlarga bo'linishini ahamiyatini o'rganish.
50. Toshkent iqtisodiy rayoni.
51. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni.
52. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishidagi o'rni.
53. Farg'ona iqtisodiy rayoni.
54. Farg'ona iqtisodiy rayonining O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishidagi o'rni.
55. Zarafshon iqtisodiy rayoni
56. Zarafshon iqtisodiy rayonining O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishidagi o'rni.
57. Janubiy iqtisodiy rayon.
58. Janubiy iqtisodiy rayonining O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishidagi o'rni.

59. Quyi-Amudaryo iqtisodiy rayoni.

60. Quyi-Amudaryo iqtisodiy rayonining O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishidagi o'rni.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. O'zbekiston tabiiy geografiyasining o'rganish ob'ekti, maqsadi, vazifalari
2. O'zbekiston tabiati va tabiiy boyliklarining o'rganish tarixi.
3. O'zbekiston geologik tuzilishi
4. O'zbekiston relyefi
5. O'zbekiston iqlimiy resurslari geografiyasi
6. O'zbekiston tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish masalalari
7. O'zbekiston tabiiy resurslarining zonallik bo'yicha tarqalishi
8. O'zbekiston qo'riqxonalari, ularni tashkil qilishning geografik jihatlari
9. O'zbekiston "Qizil kitobi", uning maqsad va vazifalari
10. O'zbekiston suv resurslari va ularni muhofaza qilish masalalari
11. O'zbekiston kanallari va xo'jalikdagi ahamiyati
12. O'zbekistonda tashkil qilingan suv omborlari, maqsad va vazifalari
13. O'zbekistonda sho'rlanish va cho'llanish muammolari
14. O'zbekistonning organik dunyosining geografik xususiyatlari
15. O'zbekistonning tabiati, tabiiy boyliklari va ularni muhofaza qilish masalalari
16. Ustyurt okrugi tabiiy boyliklari va ulardan foydalanish
17. O'zbekiston tekislik qismi o'simliklari va ularni muhofaza qilish
18. O'zbekiston tekislik qismi hayvonot dunyosi va ularni muhofaza qilish
19. O'zbekiston tog'li qismi o'simliklari va ularni muhofaza qilish
20. O'zbekiston tog'li qismi hayvonot dunyosi va ularni muhofaza qilish
21. O'zbekiston tekislik qismi qo'riqxonalari va ularning ahamiyati
22. O'zbekiston tog'lari tabiatini muhofaza qilish muammolari
23. O'zbekiston tuproqlarini muhofaza qilish masalalari
24. O'zbekiston o'simliklari "Qizil kitob"i
25. O'zbekiston hayvonot dunyosi "Qizil kitob"i

| | |
|---|---|
| | 26. Tuyamo‘yin suv ombori va xo‘jalikdagi ahamiyati<br>27. Tolimarjon suv ombori va xo‘jalikdagi ahamiyati<br>28. Andijon suv ombori va xo‘jalikdagi ahamiyati<br>29. Chorvoq suv ombori va unung xo‘jalik, rekreatsion ahamiyati<br>30. O‘zbekiston muzliklari va ularning ahamiyati<br>31. Aydar-Arnasoy ko‘llari tizimi umumiy tavsifi<br>32. O‘zbekiston dovonlari va ularning geografiyasi<br>33. Orol ko’liga umumiy tavsif (1960- yilgacha bo’lgan davrlardagi holati)<br>34. O‘zbekistonda tarqalgan grunt suvlari va ularning geografik tarqalishi<br>35. Orolbo’yi Qoraqumining tabiiy geografik xususiyatlari<br>36. G‘arbiy Tyanshan tog’ tizimi relyefiiga umumiy tavsif.<br>37. O‘zbekiston tabiatini muhofaza qilish muammolari<br>38. Quyi Amudaryo okrugi tabiati<br>39. Qizilqum<br>40. Quyi Zarafshon<br>41. Farg’ona<br>42. O‘rta Zarafshon<br>43. Qashqadaryo<br>44. Surxondaryo<br>45. G’arbiy Tyanshan<br>46. Turkiston-Nurota<br>47. Bobotog’<br>48. Hisor-Zarafshon<br>49. Toshkent<br>50. Mirzacho‘l<br>51. O‘zbekistonning siyosiy-ma’muriy kartasining shakllanish bosqichlarini tahlil qilish.<br>52. O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy geografik o‘rni<br>53. O‘zbekiston aholisi o‘sish dinamikasini aniqlash va tahlil qilish.<br>54. O‘zbekiston iqtisodiyotining shakllanish bosqichlari.<br>55. Sanoat korxonalari va tarmoqlari.<br>56. Og’ir sanoat tarmoqlari.<br>57. Yengil sanoat tarmoqlari.<br>58. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi.<br>59. Dehqonchilik tarmoqlari.<br>60. Chorvachilik tarmoqlari.<br>61. O‘zbekistonda mavjud transport vositalari.<br>62. Respublikada transport tizimlarining rivojlanish xususiyatlari.<br>63. Nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlanish xususiyatlari.<br>64. Toshkent iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari.<br>65. Toshkent iqtisodiy rayoni xo‘jaligi tarkibi, rivojlanish darajasi. Sanoatining asosiy tarmoqlari va geografiyasi. |

| | |
|---|---|
| | 66. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi va mexnat resurslari.<br>67. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajasi, respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining asosiy tarmoqlari geografiyasi.<br>68. Farg'ona iqtisodiy rayoni. Farg'ona iqtisodiy rayonining kattaligi, chegaralari, tarkibi, geografik o'rni<br>69. Farg'ona iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajasi, respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining asosiy tarmoqlari geografiyasi. Transporti.<br>70. Zarafshon iqtisodiy rayoni. Zarafshon iqtisodiy rayonining kattaligi, chegaralari, geografik o'rni. Tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari unda Markaziy Qizilqumning o'rni, aholisi va mexnat resurslari.<br>71. Zarafshon iqtisodiy rayoni xo'jaligi: rivojlanish bosqichlari va darajasi, respublika iqtisodiyotida tutgan o'rni. Sanoatining asosiy tarmoqlari geografiyasi.<br>72. Janubiy iqtisodiy rayoni. Janubiy iqtisodiy rayoni kattaligi, chegaralari, geografik o'rni.<br>73. Janubiy iqtisodiy rayoni xo'jaligining rivojlanish bosqichlari, darajasi, xususiyatlari, respublikadagi o'rni. Sanoat tarmoqlari, unda neft-gaz sanoatining o'rni, ularning geografiyasi.<br>74. Janubiy iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti, subtropik mintaqada joylashganligi,tabiiy resurslari, aholisi va mexnat resurslari.<br>75. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni. Tabiiy sharoiti<br>76. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni xo'jaligining xususiyatlari va rivojlanish darajasi.<br>77. Orol va Orol buyi ekologik muammolari.<br>78. Respublikamiz tabiatini muhofaza qilish. |
| **3.** | **V. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**<br>- O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanining rivojlanishining asosiy bosqichlarini;<br>- asosiy tabiiy geografik xususiyatlarini, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va qonuniyatlar;<br>- darslik, o'quv qo'llanmalar va maxsus adabiyotlardan bilim egallash jarayonida foydalana bilishlari;<br>- o'quv ko'rgazmali vositalar xarita, atlas kabilarni o'qiy bilish va ulardan foydalana olishlari;<br>- ishlab chiqarish tarmoqlari joylashuviga ta'sir etuvchi omillar;<br>- statistik ma'lumotlarni tahlil qilishi, jadval kartografik, kartadiagramma materiallaridan foydalanish bo'yicha **bilimga;**<br>- O'zbekiston tabiiy geografiyasining o'ziga xos tabiatini o'rganish;<br>- boshqa regionlardan ajralib turadigan tomonlari, rivojlanish tarixi;<br>- tektonik tuzilishi uning relyefiga qanday ta'sir ko'rsatishi; |

| | |
|---|---|
| | - aholisi va uning hududiy joylashuvi;<br>- sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi va transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari<br>- tabiat unsurlarining bir-biriga ta'siri va uning natijasida kelib chiqadigan hodisalarni tahlil qila bilish **ko'nikmasiga;**<br>- O'zbekiston tabiatining o'ziga xos tabiiy-geografik xususiyatlari, tabiiy sharoiti va resurslari, tabiat komplekslari;<br>- tabiat hodisalarning bir-biriga bog'liq va aloqadorlik qonuniyatlarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini tahlil qilish;<br>- O'zbekiston tabiatini hamma sohalarda to'g'ri va bir xilda yozilishiga erishish, umymiy tabiiy-geografik xususiyatlari va ularni tahlil qilish;<br>- darslik, o'quv qo'llanmalar va mahsus adabiyotlardan bilim egallash jarayonida foydalana bilishlari;<br>- milliy iqtisodiyot tarmoqlari ko'rsatkichlari asosida grafik ishlar;<br>- o'quv ko'rgazmali vositalar xarita, atlas kabilarni o'qiy bilish va ulardan foydalana bilishlari va ularni baholash **malakasiga ega bo'lishi kerak.** |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari.**<br>- ma'ruzalar;<br>- interfaol keys-stadilar;<br>- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>- guruhlarda ishlash;<br>- taqdimotlarni qilish;<br>- individual loyihalar;<br>- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |
| 6. | **VIII. Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ibroimov Sh.I. O'zbekiston tabiiy gegorafiyasi O'quv-qo'llanma. – Chirchiq.: "Zebo Prints", 2024.<br>2. Qurbonov Sh.B., Fedarko V.N. O'zbekiston geografiyasi (II qism. O'zbekiston iqtisodiy iqtisodiy va ijtimoiy geograiyasi). Darslik. - T.: "Yangi Chirchiq prints", 2024.<br><br>**IX. Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Soliyev A. O'zbekiston Geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). Toshkent, "Universitet", 2014.<br>2. Hasanov I.A., G'ulomov P.N., Sharipov Sh.M., Avezov M.M., Ibragimova R.A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. - |

| | |
|---|---|
| | T.: "Ma'rifat", 2023.<br>3. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. (Олий Ўқув юртлари география талабалари учун ўқув қўлланма). Т.: Ўқитувчи, 1996.<br>4. Баратов П, Соатов А. Умумий табиий география. Тошкент.: "Ўқитувчи", 2002.<br>5. Баратов П. Ўзбекистон табиий географиясидан амалий машғулотлар. Т.: Чўлпон, 2005.<br>6. Сабитова Н.И., Саидкаримова З.С. Дунё табиий географияси ва топография асослари. Услубий қўлланма. ЎзМУ, 2007.<br>7. Urazbayev A.K. Tuproqlar geografiyasi Darslik. –Chirchiq.: "Zebo Prints", 2023.<br>8. Abdimurotov O.U. Geografiyadan masala va mashqlar. O'quv qo'llanma. – Toshkent, MALIK PRINT CO, 2021. – 200 b.<br>9. Vaxobov X., Abdulqosimov A., Alimkulov N.R. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi. O'quv qo'llanma. T.: Nodirabegim, 2021.<br>10. Солиев А., Махамадалиев Р. Иқтисодий география асослари. Тошкент, Университет, 1996.<br>11. Солиев А., Сафаров И. Иқтисодий ва сиёсий география асослари. Тошкент, Университет, 2003.<br><br>**X. Axborot manbalari:**<br>12. www.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti rasmiy sayti.<br>13. www.unilibrary.uz – O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining yagona elektron kutubxona axborot tizimi.<br>14. www.lib.cspu.uz – Chirchiq davlat pedagogika universiteti kutubxona web sayti.<br>15. www.geografiya.uz – Geografiya sohasiga qiziquvchilar uchun ilmiy-ommabop sayt. |
| **7.** | **Chirchiq daviat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024-yil "28" avgust dagi qarori bilan tasdiqlangan.** |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>Ibroimov Sh.I.– Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrasi dotsenti v.b., g.f.f.d.<br>Urinova N.S. - Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrasi o'qituvchisi. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Urazbayev A.K. – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Geografiya kafedrasi professori, g.f.d.<br>Alimkulov N.R.– TDPU, "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasi professori v/b, g.f.d. |